

O'ZBEKISTON HUDUDIDA XO'JALIK-MADANIY TIPLAR, ETNIK JARAYONLAR MASALASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR

Boymurzayeva Hayotxon Asadovna

Urganch davlat universiteti 241-Arxeologiya mutaxassisligi 2-kurs magistanti

Annatsiya: *Maqolada tabiiy-geografik hududlardagi etnik jarayonlar va xo'jalik-madaniy tiplarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari taxlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Vinogradov A. V., Itina M. A., Kess A. S., Mamedov E. D., Baratov S. P., Mamatqulov M., Rafiqov A., Kabirov J., Sagdullayev A., Okladnikov A. P., Islamov U., Ibragimov R.Z., Bijanov E. B., Toshkenboyev N., Suleymonov R. X., Jo'raqulov M., Vinogradova E. A.*

Аннотация: *В статье анализируются этапы возникновения, становления и развития этнических процессов и экономико-культурных типов в естественно-географических регионах.*

Ключевые слова: *Виноградов А. В., Итина М. А., Кесс А. С., Мамедов Э. Д., Баратов С. П., Маматкулов М., Рафиқов А., Кабиrow Ж., Сагдуллаев А., Окладников А. П., Исламов У., Ибрагимов Р. З., Бижанов Э. Б., Ташкенбоев Н., Сулейманов Р. Х., Джуракулов М., Виноградова Е. А.*

Abstract: *The article analyzes the stages of emergence, formation and development of ethnic processes and economic-cultural types in natural-geographic regions.*

Keywords: *Vinogradov A. V., Itina M. A., Kess A. S., Mamedov E. D., Baratov S. P., Mamatkulov M., Rafikov A., Kabirov J., Sagdullayev A., Okladnikov A. P., Islamov U., Ibragimov R. Z., Bijanov E. B., Toshkenboyev N., Suleymanov R. Kh., Dzhorakulov M., Vinogradova E.A.*

KIRISH

Osiyo materigi geografik holati xilma-xilligi uchlamchi va to'rtlamchi geologik davrlar taraqqiyoti natijalari mahsuligidir. Shunday geografik holati O'zbekistonning tabiiy-geografik qismlarida o'z ma'nosini topgan. Geografiya fani yutuqlariga ko'ra, bundan 25-10 mln yillar Qizilqum va Orol dengizi, Qoraqum-Ustyurt hududlari tekislik bo'lgan¹⁷. Tadqiqotchilar qayd qilishicha 4-3 mln yillikdan 500 ming yillikgacha Qizilqum, Sariqamishbo'yi va Janubiy Orolbo'yi hududi tuzilishi tekislik bo'lgan¹⁸. Hozirgi tarixiy ma'lumotlarga ko'ra ilk poleolit ashel davri 1,5 mln – 100 ming yilliklarga bo'lingan¹⁹. Maskur maqolada tosh davrida aholining joylashish hususiyatlari, etnik jarayonlar, xo'jalik-madaniy tiplarning vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlarini yoritish nazarga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili.

¹⁷ Баратов П., Маматкулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”. 2002. – Б. 283-284.

¹⁸ Виноградов А. В., Итина М. А., Кесь А. С., Мамедов Е. Д. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии // Первобытный человек и его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. – М.: “Наука”. 1974. – С. 290-291

¹⁹ O'zbekiston tarixi. –Т.: 2023. Т. 11. –В. 20.

Geografiya fani yutuqlariga ko'ra, O'lkamiz hududi geografik holati, iqlim sharoiti, tabiiy resurslar zahirasi, suv ta'minoti, aholining joylashishi holatidan kelib chiqib, tekislik va tog'li hududlarga bo'lingan. Masalan:

I. Tekislik tabiiy-geografik hududlar;


1. Ustyurt.
2. Quyi Amudaryo.
3. Quyi Zarafshon.
4. Qizilqum.

II. Tog'li hududlarga quyidagi hududlar jalb qilingan;

1. Toshkent.
2. Farg'ona.
3. O'rta va Quyi Zarafshon
4. Surxondaryo²⁰.

Arxeologik nashrlarda qayd qilinishicha, respublika viloyatlarida tosh davriga oid yodgorliklarni arxeologik jihatdan bir xronologik davrda o'rganilib, moddiy ashyolar olingan emas. Tosh davri ashel davri ilk bosqichida O'zbekistonning tabiiy-iqlimi muayyan hududlari odamzot tomonidan o'zlashtirilib, tevarak-atroflarda tabiiy resurslardan iqlim sharoit qulayligidan foydalanib, kundalik faoliyatlarini olib borganlar. Masalan, miloddan avvalgi 1 mln yillarda Toshkent vodiysida Ko'lbuloq, Surxon vodiysida Selengur, Shimoliy Zarafshon vodiysida Ijond, Vaush odamzodga hizmat qilgan²¹.

O'rta Osiyo respublikalari hududlari o'rta tosh davrida manzilgozar arxeologik jihatdan o'rganilgan emas. A.P. Okladnikov rahbarligidagi guruh Surxondaryo viloyati Boysun tumani Boysun tog'ida dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgan Teshiktosh (balandligi 7 metr, chuqurligi 21 metr, kengligi 20 metr). G'or-makondan olingan mehnat qurollari (339 ta) hamda 9 yashar neondertal bolaning bosh suyagi topilgan²². Maskur ashyolar muste davrida Surxon vohasida etnik jarayonlar to'g'risida ilk manbalar olinganini qayd qilish lozim.



²⁰ Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996. – Б. 181-209.

²¹ Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент. “Ўқитувчи”, 1990. – Б. 14-20.

²² Okladnikov A. P. Неандертальский человек и следы культуры Средней Азии // СА. –М-Л.: 1940. Вып. 6. – С. 7-8. Рис. 2., Исломов У. Фарғонанинг ибтидоий тарихи //Анорбоев А, Исломов У, Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент. “Фан”, 2001. – Б.31-32.

Surxondaryo viloyati Teshiktosh manzilgohi

XX asrning 60-yillaridan Toshkent vohasining Ko'lbuloq manzilgohi, 70-yillaridan Fag'ona vodiysida Seleng'ur manzilgohlari arxeologik ishlarda o'rganilishi natijasida tosh davri ilk bosqichiga mansub moddiy ashyolar olingan.



Fag'ona vodiysi Seleng'ur manzilgohlari

1962-yildan boshlab M. Qosimov Toshkent viloyati Ohangaron daryosi irmog'i Jarsoy bo'ylab joylashgan ochiq manzilgoh – Ko'lbuloqda qazishma ishlari olib borilishi munosabati bilan Chust madaniyati (8 ta madaniy qatlam, jami 49 ta), shundan quyi qatlami 22 tasidan 1-2 qatlamlari ashel davri quyi bosqichiga mansub bo'lgan.²³ Tosh davrining ashel quyi bosqichiga oid manbalar Ustyurt hududini Shaxpaxta havzasi hududida qurib qolgan quduqlar atrofida arxeologik dala amaliyoti davrida ro'yxatga olingan Yesen 1, 2, Qoraquduq, Churuk manzilgohlari madaniy qatlamlari ochilgan²⁴. Shu tariqa, ashel davri quyi bosqichida xo'jalik-madaniy tiplarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1-guruh. G'or-makonlar hududiy cheklanganligi.

2-guruh. Ochiq manzilgohlar.

Bundan 100-40 ming yilliklarda Toshkent vodiysi Ko'lbuloqlik, Farg'ona vodiysi Selengurlik ovchi-termachilar tabiiy resurs zahirasi seroblighi bois, ko'nikkan hudud doirasida amaliy mashg'ulotlarini davom ettirganlar. O'rta Zarafshonda Zarafshon tog' tizmasi Bulbulzorsoy sohilida joylashgan Omonqo'ton, Narpay regionida Zirabuloq va Qo'tirbuloqlar ochiq manzilgohlar bo'lgan. Maskur yodgorliklardan olingan moddiy ashyolar muste davriga oid bo'lgan²⁵.

Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo hududlarida muste davri manzilgohlarida istiqomat qilgan ovchilar va termachilar kasbi-korini davom ettirganlar. Arxeologik izlanishlar natijasiga ko'ra, Samarqand shahri o'rnida hamda Xorazm vohasi Sulton Uvays tog'i etaklari so'ngi tosh davrida etnik makonga aylangan. O'rta Zarafshonda

²³ Ибрагимов Р. З. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент. 2020. – Б. 17.

²⁴ Бижанов Е. Б. Коменный век Устюрта // Автореф. дисс. док. истор. наук. 1996. – Нукус. – С. 4

²⁵ Ташкенбоев Н., Сулейманов. Р. Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшан. –Ташкент.: "Фан", 1980. – С. 80-86.

Samarqand makoni, Sulton Uvays tog'i hududida (Burli-3). Shu ma'noda o'rta tosh va so'ngi tosh davridagi tog'-g'or va ochiq manzilgohlar faoliyatlari davom etgan²⁶.

Tahlil va natijalar.

Vatanimiz yer osti tebranishlari bir necha takrorlanishi natijasida tarkib topgan tabiiy-geografik hududlarda odamzodning joylashishi, xo'jalik-madaniy tiplarining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi arxeologik manbalar asosida tahlil qilindi. Natijalar ko'rsatishicha tashkil qilingan ya'ni ilk tosh davridan so'ngi tosh davrida O'zbekiston tabiiy-iqtisodiy hududlarida xo'jalik-madaniy tiplar, etnik jarayonlar natijasida ilmiy xulosalarga kelindi. O'rganilish natijalaridan tosh davri tarixini o'rganishda foydalanib, mavzu bo'yicha referatlar, tarix to'garaklari mavzularini ishlab chiqishda natijalardan unumli foydalanishga hizmat qiladi.

Xulosa

Mavzu bo'yicha quyidagicha xulosalar qayd qilindi:

- Bundan 1mln-100 ming yilliklar O'zbekiston hududi geografik holati odamzodning joylashishi, ilk xo'jalik-madaniy tiplarning vujudga kelishi va rivojlanish jarayoni;

- Mil.avv. 100-40 ming yilliklarda tabiiy-iqtisodiy hududlar xo'jalik-madaniy tiplar, aholining joylashishi, etnik jarayonlar shakllanishi va rivojlanishi ;

- 40-12 ming yilliklar O'zbekiston tabiiy-iqtisodiy hududlarida kechgan jarayonlar, xo'jalik-madaniy tiplarining rivojlanish tarixi masalalari bo'yicha xulosaga kelindi.

Takliflar quyidagicha izohlandi:

-Ajdodlarimizning ilk faoliyati tarixini yanada keng ma'noda o'rganish, shu asosida hozirgi zamonning tarixiy ahamiyatiga e'tibor berish;

- Aholining joylashishi ta'sirida xo'jalik-madaniy tiplarning vijudga kelishi va rivojlanish jarayoni, o'tmish tarixini o'rganish;

- Tog' tabiiy g'or-makonlar, ochiq tekislikda buloqlar sohili etaklarida o'rnashgan ajdodlarimiz bunyodkorlik faoliyatiga imkon bergan xo'jalik-madaniy tiplar tarixini yoritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Баратов П., Маматкулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”. 2002. – Б. 283-284.

2. Виноградов А. В., Итина М. А., Кесь А. С., Мамедов Е. Д. Палеогеографическая обусловленность расселиния древнего человека в пустынях Средней Азии // Первобитный человек и его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. – М.: “Наука”. 1974. – С. 290-291

3. O'zbekiston tarixi. –Т.: 2023. Т. 11. –В. 20.

²⁶ Жўрақулов М. Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидоий маданият тарихи саҳифаси // “Ўзбекистон археологияси”. – Самарқанд. 2019.– Б. 52-56., Виноградова Е. А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге // Приаралье в древности и средневековье. – М.: ИВЛ.РАН. “Наука”, 1998. – С. 74-77.

4. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996. – Б. 181-209.
5. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент. “Ўқитувчи”, 1990. – Б. 14-20.
6. Окладников А. П. Неандертальский человек и следы культуры Средней Азии // СА. – М-Л.: 1940. Выпб. – С. 7-8. Рис. 2.
7. Исломов У. Фарғонанинг ибтидоий тарихи //Анорбоев А, Исломов У, Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент. “Фан”, 2001. – Б.31-32.
8. Ибрагимов Р. З. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент. 2020. – Б. 17.
9. Бижанов Е. Б. Коменный век Устюрта // Автореф. дисс. док. истор. наук. 1996. – Нукус. – С. 4
10. Ташкенбоев Н., Сулейманов. Р. Х. Культура древне каменью века долины Зарафшан. –Ташкент.: “Фан”, 1980. – С. 80-86.
11. Жўрақулов М. Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидоий маданият тарихи саҳифаси // “Ўзбекистон археологияси”. – Самарқанд. 2019.– Б. 52-56.,
12. Виноградова Е. А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге // Приаралье в древности и средневековье. – М.: ИВЛ.РАН. “Наука”, 1998. – С. 74-77